

**Tasviriy faoliyat bilan shug'ullanadigan o'smirlarda emotsional intellekt shakllanishi****Vahobova Iqbolxon Abduvahidovna**

Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumani
17-sonli ayrim fanlari chuqur o'qitiladigan
sinflari mavjud maktab – internati
amaliyotchi psixologi

Annotatsiya: Maqolada emotsional intellektning o'smirlar psixologik rivojlanishiga ta'siri, xususan tasviriy san'at orqali his-tuyg'ularni ifoda etish, o'zini anglash va ijtimoiy moslashuvda tutgan o'rni tahlil qilinadi. Maktabdagi real amaliy kuzatuvlar asosida emotsional intellektning komponentlari — o'zini anglash, empatiya, o'z-o'zini boshqarish va ijtimoiy ko'nikmalar — o'quvchilarda qanday shakllanishi mumkinligi yoritiladi. Natijada o'quvchilar ruhiy salomatligi va ijtimoiy faolligi oshadi.

Kalit so'zlar: emotsional intellekt, o'smirlik, tasviriy faoliyat, psixologik rivojlanish, empatiya, maktab tajribasi

Tasviriy san'at — bu o'smirlar uchun o'zlarini erkin ifoda etish, ichki holatini tushunish va tashqi dunyo bilan bog'lanishning eng tabiiy yo'llaridan biridir. Chizilgan rasm, tanlangan rang, yoki hatto oddiy bir chiziq ham o'smir qalbidagi kechinmalar, quvonchlar yoki xavotirlarni ifodalashi mumkin. O'quvchilarning rasm chizish jarayonida o'zlariga xos ifoda uslublari shakllanadi, bu esa o'z navbatida emotsional intellektning asosiy jihatlari — o'zini anglash va boshqarish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Ko'p hollarda biz chizilgan rasm ortida biror tuyg'uni — quvonch, g'am, xavotir yoki orzuni — ko'ramiz. O'smir bu hislarni so'z bilan emas, rasm orqali aytadi. Bu esa nafaqat uning ichki olamini yoritadi, balki atrofdagilarga ham uni tushunishga imkon beradi. Bunday muloqot shakli, ayniqsa, emotsiyalarini og'zaki ifoda eta olmaydigan yoki uyaladigan bolalar uchun nihoyatda muhimdir.



Tasviriy faoliyat davomida tengdoshlar bilan ishlash, o'z asarini baham ko'rish, boshqalarning ishlariga hurmat bilan qarash — bularning barchasi empatiya va ijtimoiy ko'nikmalarni mustahkamlaydi. O'qituvchilar rasm orqali o'quvchining kayfiyatini, ichki ziddiyatlarini yoki ijtimoiy muammolarini ilg'ab, unga yordam ko'rsatishi mumkin. Demak, tasviriy san'at nafaqat estetik tarbiya vositasi, balki o'smirning emotsional dunyosini boyituvchi, uni tushunishga yo'l ochuvchi kuchli psixologik resursdir.

Tasviriy faoliyat bilan shug'ullanadigan o'smirlarda emotsional intellekt shakllanishi (hayotiy misol bilan)

Tasviriy san'at darslarida men guvoh bo'lgan oddiy bir holat o'quvchining ichki dunyosini qanday aks ettirishini chuqur anglashimga sabab bo'ldi. 8-sinfda o'qiydigan Nodira ismli o'quvchim ko'p hollarda so'zga kam aralashar, darslarda faqat zarur hollardagina javob berardi. Bir kuni “Mening dunyoim” mavzusida rasm chizish topshirig'ida u qorong'u osmon ostida yolg'iz daraxtni aks ettirgan edi. Rasmda hech qanday inson tasviri yo'q edi, lekin u orqali qandaydir sovuqlik, tanholik va ichki iztirob sezilib turardi. Darsdan so'ng u bilan suhbatlashganimda, oila muhitida ayrim muammolar borligini aytdi.

Shu holat tasviriy san'at orqali o'quvchi o'zini qanday ifoda qilishi va uning his-tuyg'ulari yuzaga chiqishiga qanday imkon berishini yaqqol ko'rsatdi. Keyingi haftalarda Nodiraga oddiy rasm chizish mashqlaridan tashqari, his-tuyg'ularni ranglar orqali ifodalash bo'yicha kichik topshiriqlar berdim. U asta-sekin ochila boshladi, boshqa o'quvchilar bilan suhbatga kirisha boshladi va eng muhimi — o'zini qadrlash tuyg'usi shakllana boshladi.

Bu kichik tajriba shuni ko'rsatadiki, tasviriy faoliyat — o'smirlar uchun nafaqat estetik tarbiya, balki ularning emotsional intellektini rivojlantirish, ichki muvozanatini tiklash va ijtimoiy moslashuvini kuchaytirishning kuchli vositasidir. Agar har bir o'qituvchi o'quvchining rasm ortidagi ovozini eshita olsa, maktab nafaqat bilim beradigan, balki ruhiyatni ham sog'lomlashtiradigan maskanga aylanadi.



Amaliy kuzatuv

To'ra qo'rg'on tumanidagi 17-sonli ayrim fanlari chuqur o'qitiladigan sinflari mavjud maktab-internat" davlat muassasasida ishlayman va o'quvchilarni kuzatdim. Tasviriy san'at darslarida men guvoh bo'lgan oddiy bir holat o'quvchining ichki dunyosini qanday aks ettirishini chuqur anglashimga sabab bo'ldi. 8-sinfda o'qiydigan Nodira ismli o'quvchim ko'p hollarda so'zga kam aralashar, darslarda faqat zarur hollardagina javob berardi. Bir kuni “Mening dunyoim” mavzusida rasm chizish topshirig'ida u qorong'u osmon ostida yolg'iz daraxtni aks ettirgan edi. Rasmda hech qanday inson tasviri yo'q edi, lekin u orqali qandaydir sovuqlik, tanholik va ichki iztirob sezilib turardi. Darsdan so'ng u bilan suhbatlashganimda, oila muhitida ayrim muammolar borligini aytdi.

Shu holat tasviriy san'at orqali o'quvchi o'zini qanday ifoda qilishi va uning his-tuyg'ulari yuzaga chiqishiga qanday imkon berishini yaqqol ko'rsatdi. Keyingi haftalarda Nodiraga oddiy rasm chizish mashqlaridan tashqari, his-tuyg'ularni ranglar orqali ifodalash bo'yicha kichik topshiriqlar berdim. U asta-sekin ochila boshladi, boshqa o'quvchilar bilan suhbatga kirisha boshladi va eng muhimi — o'zini qadrlash tuyg'usi shakllana boshladi.

Bu kichik tajriba shuni ko'rsatadiki, tasviriy faoliyat — o'smirlar uchun nafaqat estetik tarbiya, balki ularning emotsional intellektini rivojlantirish, ichki muvozanatini tiklash va ijtimoiy moslashuvini kuchaytirishning kuchli vositasidir. Agar har bir o'qituvchi o'quvchining rasm ortidagi ovozini eshita olsa, maktab nafaqat bilim beradigan, balki ruhiyatni ham sog'lomlashtiradigan maskanga aylanadi.

Yana bir kuzatuv 9-sinf o'quvchisi Azizbek bilan bog'liq bo'ldi. Dastlabki darslarda u sinfdan ajralib turar, ko'pincha o'z rasmlarida qora ranglarni ishlatardi. “Kelajakdagi hayotim” mavzusida chizgan rasmini ko'rib, unda quyuq soyalar, temir panjara va yolg'iz odam silueti tasvirlanganini ko'rdim. Bu rasm uning ichki xavotiri va noaniqliklarini aks ettirardi. Darsdan so'ng suhbatda Azizbek o'zini jamiyatda keraksizdek his qilishini, kelajagidan qo'rqishini aytdi.



Shundan so‘ng, unga individual e‘tibor qaratdim: uni kichik guruhli ijodiy loyihalarga jalb etdim, ishtirokini rag‘batlantirdim. Oradan ikki oy o‘tib, “Mening oilam — mening kuchim” mavzusidagi rasmlar orasida Azizbekning ishi eng yorqin va iliq ranglar bilan chizilgan edi. Bu rasmda oilaviy mehr, iliqlik, xavfsizlik tuyg‘ulari aks etgan edi. Bu o‘zgarish uning emotsional dunyosida ham, ijtimoiy faolligida ham sezilarli bo‘ldi.

Bu kuzatuvlar asosida aytish mumkinki, tasviriy san‘at faqat estetik didni emas, balki o‘quvchining ruhiy holatini tiklash va barqarorlashtirishga xizmat qiluvchi amaliy vosita sifatida pedagogik jarayonga kiritilishi kerak. Shu yo‘l bilan biz o‘smirlarning emotsional intellektini yanada samarali rivojlantira olamiz.

Xulosa

Yuqorida bayon etilgan nazariy va amaliy mulohazalardan ko‘rinib turibdiki, emotsional intellekt o‘smirlarning psixologik rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, tasviriy san‘at kabi ijodiy faoliyatlar orqali o‘quvchilarning ichki holati yuzaga chiqadi, o‘zini anglash, boshqalarni tushunish va ijtimoiy munosabatlarni shakllantirish imkoniyati kengayadi. Maktab psixologi va o‘qituvchining hamkorlikdagi yondashuvi, shuningdek, hissiyotlar bilan ishlashga yo‘naltirilgan topshiriqlar — o‘smirlar salomatligini mustahkamlashda, ijtimoiy faollikni oshirishda, emotsional muvozanatni ta‘minlashda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Kelgusida bu yo‘nalishda amaliy ishlar, maxsus treninglar va diagnostik metodlar asosida tizimli ishlar olib borilsa, maktab ta‘limi nafaqat bilim manbai, balki shaxsiy rivojlanishning markaziga aylanishi mumkin.